



ILMIY-TEXNIK TARJIMADA TERMINOLOGIYA MUAMMOLARI

Ablaqulova Farangiz O'tkir qizi

farangizablaqulova71@gmail.com

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti, Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmiy-texnik tarjimada terminologiyaning tutgan o'ri, uning to'g'ri tanlanmasligi natijasida yuzaga keladigan muammolar hamda bu muammolarni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Terminlarning milliy tilga moslashtirish jarayoni va tarjimonning ilmiy tafakkuri bu jarayonda qanday ahamiyat kasb etishi haqidagi fikrlar misollar bilan yoritiladi.

Kalit so'zlar: *ilmiy-texnik tarjima, terminologiya tizimi, terminlarni moslashtirish, ekvivalentlik, leksik birliklar, kontekstual ma'no, tarjima muammolari, termin tanlash*

Globalashuv davrida fan, texnologiya va ishlab chiqarish sohalari tobora integratsiyalashib bormoqda. Bunday jarayonda ilmiy-texnik tarjima millatlararo hamkorlik, texnik yangiliklar almashinuvi va ilmiy yutuqlarning keng tarqalishini ta'minlaydi. Termin — ma'lum bir haqiqatga ishora qiluvchi, shakl orqali ifodalanadigan va o'zaro muloqotda qo'llaniladigan birlikdir. Terminlar ma'lum sohaning ilmiy tushunchalarini ifodalaydi, shuning uchun ularni to'g'ri tarjima qilish, moslashtirish va kontekstga mos ishlatish tarjimonning asosiy vazifalaridan biridir.

Ilmiy matnni tarjima qilayotganda faktlar, tahlillar, turli sxemalar va atamalarni aniq ifodalash juda muhim. Bunday matnlarda so'z tanlash faqat ma'noni to'g'ri yetkazish bilan cheklanmaydi, balki tarjima qilinayotgan tilning o'ziga xos



terminologik qoidalariga ham mos bo‘lishi kerak. Ilmiy-texnik tarjimada terminlar bilan ishlashning bir necha muammolari mavjud. Eng ko‘p uchraydigan muammolardan biri — terminlarning ekvivalentini topishdagi qiyinchilik. Asliyat matn va tarjimaning mazmuni to‘liq mos kelishi eng muhim talab hisoblanadi. Shuning uchun ko‘pchilik tadqiqotchilar ekvivalentlikni tarjimaning asosiy xususiyati deb biladi. Asliyatdagi so‘zga qisman to‘g‘ri keladigan ekvivalentni topish ko‘pincha tarjima qilishda muammo yaratadi. Har bir tilda barcha terminlarga aniq mos so‘z mavjud emas. Masalan, ingliz tilidagi “software debugging” terminini o‘zbek tiliga “dasturdagi xatolarni tuzatish jarayoni” deb izohlab tarjima qilish to‘g‘ri bo‘ladi, chunki “debugging” so‘zining to‘liq ekvivalenti yo‘q. Yana bir muammo terminlarning bir necha ma’noiligidir. Bir termin turli fan sohalarida turlicha ma’noda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, “network” so‘zi texnik sohada “tarmoq”, ijtimoiy fanlarda esa “aloqa tizimi” ma’nosini beradi. “Cell” so‘zi biologiyada “hujayra”, telekommunikatsiyada “uyali telefon” degan ma’noga ega. Tarjimon kontekstni aniqlab, mos terminni tanlashi zarur. Milliy terminologiya tizimining yetarlicha shakllanmaganligi ham asosiy muammolardan biri hisoblanadi. O‘zbek tilida ayrim texnik terminlar hali ham inglizcha yoki ruscha shaklda qo‘llanilmoqda. Masalan, “scanner”, “router”, “printer” kabi atamalar o‘zbekchaga to‘liq moslashtirilmagan. Tarjimon har doim yangi terminlarni til me’yorlariga mos shaklda joriy etish haqida o‘ylashi kerak. Misol uchun, ingliz tilidagi “artificial intelligence” atamasi bir necha yillar davomida “sun’iy intellekt” deb tarjima qilinib kelmoqda. “Data mining” atamasi “ma’lumotlarni yig‘ish” deb tarjima qilinadi. “Ma’lumot qazib olish” deb berilsa, tushunarsiz bo‘ladi. Bu termin o‘zbek tilida keng qabul qilindi, chunki u mazmun jihatdan ham, shaklan ham moslashgan.

Ilmiy-texnik tarjimada terminlarni to‘g‘ri tanlash va moslashtirish tarjimonning malakasi, tajribasi hamda fan sohasini bilishiga bog‘liq. Tarjimon terminlarning



semantik mohiyatini chuqur anglab, ularni kontekstga mos holda qo‘llay olsa, tarjima nafaqat aniq, balki ilmiy jihatdan ham mukammal bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ochilov, E. (2012). Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent.
2. Musayev, Q. (2003). Tarjima nazariyasi. Toshkent.
3. G‘ofurov, I., Mo‘minov, O., & Qambarov, N. (2012). Tarjima nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni.
4. Cabré, M. T. (1999). Terminology: Theory, methods and applications. Amsterdam: John Benjamins.
5. Mamarasulova, Gulnoz. "Geopolitical Discourse In Translation." International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research. Vol. 1. No. 4. 2025.
6. Mahmadiyor Asadov. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus' the stranger. American Journal of Philological Sciences, 5(3), 119–123.